

ISHLARNING SUDLARGA TAALLUQLILIGI TO‘G‘RISIDA

Jumayev Diyor Bozorovich*Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining raisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sud idoralariga murojaat qilishda, murojaatning mazmuni va ko‘riladigan nizoning turiga ko‘ra qaysi sud sudloviga tegishli ekanligi yuzasidan, shuningdek taalluqlilik qoidalari buzilgan holda topshirilgan arizalarni hal etish tartibi va qonuniy asosi haqida haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: sud, da’vo talabi, mansabdar shaxs, taalluqlilik qoidalari, ishda ishtirok etuvchi shaxslar

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sud hokimiyatining vakolatlari belgilab berilgan, xususan O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Har qanday manfaatdar shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

Iqtisodiy sndlarga quyidagi ishlar taalluqlidir:

- iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek korporativ nizolar bo‘yicha ishlar ko‘rilayotganda taraflar bo‘lgan fuqarolar (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) o‘rtasidagi fuqaroviylar, ma’muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar;

- iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash (bundan buyon matnda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash deb yuritiladi) to‘g‘risidagi ishlar;

- to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlar;

- hakamlik muhokamasi bilan bog‘liq ishlar;

- arbitraj muhokamasi bilan bog‘liq ishlar;

- korporativ nizolar bo‘yicha ishlar, bundan mehnatga oid nizolar mustasno;

- investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlar;
- raqobatga oid ishlar;
- chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijro etishga qaratish to'g'risidagi.

Shu o'rinda, iqtisodiy ishlar qanday rasmiylashtirilishi haqida ma'lumot bersak. Iqtisodiy ish ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan hujjatlar, ishni ko'rish jarayonida sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar, shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakllantiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan fuqarolar ishtirokidagi nizolarga doir ishlar ham, agar tegishli talablar ularning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqsa, sudga taalluqli bo'ladi.

Qonun bilan sudga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ishlar ham kiritilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sud o'ziga taalluqli ishlarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari, shuningdek chet el yuridik shaxslari, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida ko'radi.

O'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ko'riliishi lozim.

O'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari ma'muriy sudga, boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 26 aprelda imzolangan "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'riliishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-sون Qonunga muvofiq, iqtisodiy sudga kiritilgan da'vo arizasi bo'yicha taalluqlilik qoidalari buzilgan taqdirda, mazkur da'vo arizasi sud tomonidan fuqarolik yoki ma'muriy sudga yuborilishi mumkin.

Shuningdek, bundan buyon o'zaro bog'liq bo'lgan, ba'zilari fuqarolik ishlari bo'yicha sudga, ba'zilari esa ma'muriy sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, davlat ijrochisining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat ma'muriy sudga yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga beriladi (ilgari iqtisodiy sud bilan bog'liq bo'lgan ijro ishlari bo'yicha shikoyatlar iqtisodiy sudda ko'rib chiqilgan).

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berishga haqlidir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2023 yil 26 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, “Adolat” nashriyoti, 2021 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992 yil 8 dekabr.